

CHET TILI O'QITISH TAMOYILLARI VA CHET TIL O'QITISH VOSITALARI MAVZULARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

F.S.Tashpulatova

O`zDJTU katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada chet tilini o`qitish metodikasi va uning qisqacha tarixi, xususan ushbu sohada amaliy ilmiy ishlarning tahliliga oid xulosa va malumotlar keltirilgan bo`lib, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet tilini o`qitish metodikasida qo`llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish borasida so`z boradi.

Kalit so`zlar: metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko`nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

KIRISH

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalishga asoslangan innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsiya-inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma`nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma`nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta`lim, ma`lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab rivojlanib bormoqda.¹ Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorumizga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Ilm dunyoyimizga ilg`or innovatsion texnologiyalar tadbiiq etilayotgani sir emas. Buning ijrosi sifatida, yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili” deb nomlanishi ham mamlakatimiz yoshlarining ma`suliyatini yanada oshirdi. Ta`lim sohalariga ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tadbiiq etilishi ham chet til o`rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi desak xato bo`lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til o`rganish kishilik jamiyatida bag`oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo`lmish tilni tabiiy muhitda ya`ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o`rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko`p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan

¹ Zayniddin Sanaqulov “CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR” ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00627 523-b

o`quvchi va talabalar odatda uch tilni o`rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet tili. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo`lgan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so`z yuritganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo`shnilar tili sifatida qaraladi.²

Chet tili-bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G`arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o`qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta`lim muassalarining o`quv rejalaridan o`rin olgan. Uchala tilni o`qitish jarayoni turlicha kechadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu masala yuzasidan amalga oshirilgan izlanishlar va chuqur fundamental tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, chet tilini o`qitish metodikasi didaktika bilan uyg`un, o`zaro bog`langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o`quv fanlarining o`qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi barchamizga ma`lum.

Didaktika ta`limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o`quv predmetini o`qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o`qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o`qitish ilmidir. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko`nikmani egallash, o`quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo`lidagi o`qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma`nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son-sanoqsiz ta`riflarga ega. Chet tillarining o`qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir.

Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o`rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko`rinishda bo`lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet tili umumta`limiy maqsadda o`rganilgan. Grammatik mashqlar til o`rganuvchining mantiqiy tafakkurini o`stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta`limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan.

Chet tili ta`limidan ko`zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni unga xos korpus tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi.

Hech qaysi chet tilini avvalo metodikasini chuqur o`rganmasdan egallay olmaymiz. Ushbu masalaning mohiyatini ochish va amaliy maqsadga erishishda "kommunikativ didaktika" metodi ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o`zida mujassamlashtiradi.³

-ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;

² Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o`qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.

³ Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.

- mavzu va mazmun muhimligi;
- darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo`lib ishlash;
- o`quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e`tibor katta bo`lishi zarurligi;
- tushunish va ifoda etish prinsipi asosida mashqqa kuchli e`tibor berish;
- ma`noni ochishda, harakat ko`lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko`rish tayanchi) muhimligi;
- kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o`rganish (dialogni mashq qilish);
- tildan og`zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi.

Hozirda chet tilini o`qitish metodikasida madaniyatararo muloqot iborasi keng qo`llanib kelinmoqda. Aynan shu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo`llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar sistemasi va boshqalar tog`risidagi lingvografik ma`lumotidir. Mazkur jarayonda o`quvchi-talabalarni o`rganilayotgan mamlakat madaniyatga nisbatan hurmat, o`zga mamlakat madaniyatini tog`ri tushunish ruhida tarbiyalab borish lozim.

Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo`l qo`ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, "Tee oder Kaffee?" ya`ni "choymi yoki kofemi" degan savolga ona tilimizda, - "Tee", "choy"- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog`ri kelmaydi. Nemis tilida, "Bitte, Tee" ya`ni, "Marhamat, choy" deb javob beriladi. Shu o`rinda aytish lozimki, madaniy qilibga mos so`zlashish jarayoni kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog`laydi.

Umuman olganda chet tilini o`qitishda ilmiy metodlardan tashqari zamonaviy, innovatsion va interfaol usullardan foydalanish hozirgi uchinchi renessans davrining talim sferasida muhim ahamiyat kasab etadi. Chet tilini o`rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o`rinda hozirgi davrda keng qo`llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan:⁴

1. "B-B-B" (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o`quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlil qilish qobiliyatining o`sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming)-g`oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o`quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo`yicha bir qancha bosqichlarga: g`oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

⁴ Nazarova Navbahor Ahrorovna "Chet tilini o`qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati" Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes December 18-19, 2021 116-b

3. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o'quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA

Chet tilini o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Chet tilini o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet tilini o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Chet tilni o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
2. Kobilova, N. S. (2018). BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 102-107).
3. Bekmurodova.U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.
4. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar"(uslubiy qo'llanma) , Navoiy. 2006,40 bet
5. Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", (o'quv qo'llanma). Toshkent,Sharq nashriyoti. 2003-yil